

## **V.Darsni yakunlash va o`quvchilarni baholash.**

### **Savol-javob o`tkaziladi.**

- Opa-singillar sizlarga yoqdimi?

-Hikoyadan qanday xulosa qildingiz?

Darsda faol qatnashgan o`quvchilar baholab, rag`batlantiriladi.

## **VI.Uyga vazifa berish.**

Hikoya mazmunini so`zlab berish.

### **4-mavzu: "Oyog`i osmonda bo`lgan sichqonlar" (Roald Dal)**

#### **Darsning maqsadi:**

**a)ta'limiy:** o`quvchilarni matn bilan tanishtirish, matn mazmunini tushuntirish, ifodali o`qishni o`rgatish.

**b)tarbiyaviy:** o`quvchilarga kashfiyat va ixtirolarning foydali tomonlarini tushuntirish, ularni ziyrak va sezgir bo`lishga o`rgatish.

**c)rivojlantiruvchi:** o`quvchilarning ifodali o`qish ko`nikma va malakalarini , ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

**Dars turi:** Yangi tushuncha,bilimlarni shakllantiruvchi

**Dars metodi:** Suhbat,tushuntirish,"Klaster" metodi, ta'limiy o`yinlar.

**Dars jahozi:** Rangli rasmlar,tarqatma materiallar

#### **Darsning borishi:**

### **I.Tashkiliy qism.**

Salomlashish. O`quvchilarni darsga hozirlash.Ma`naviyat daqiqasi o`tkazish.

### **II.Uy vazifasini so`rash va o`tilgan mavzuni mustahkamlash.**

Uyga berilgan vazifa – "**Opa-singillar**" hikoyasini o`quvchilar ifodali o`qib,mazmunini qayta hikoyalab beradilar.



Rasmda nomlari berilgan kasb egalarining vazifasini aytadilar.

### III.Yangi mavzu bayoni.

Ixtiro va kashfiyat nima?

#### IXTIRO

- Fan-texnika sohasida kashf etilgan, ijobiy samara beradigan yangilik.

#### KASHFIYOT

- Tekshirish, ilmiy tadqiqot natijasida, ba'zida tasodifan topilgan, yaratilgan ilmiy yangilik.

Bugun siz bilan "**Oyog`i osmonda bo`lgan sichqonlar**" matni bilan tanishamiz. Muallifi - Roald Dal haqida qisqacha ma'lumot beriladi. Matn o`quvchilarga o`qituvchi tomonidan ifodali o`qib beriladi. Mazmuni tushuntiriladi.

**Lug`at ishi:**

**Vazmin** – og`ir, bosiq

**Payqagan** – sezgan,bilgan

**Jazava** – o`zini yo`qotish darajasidagi asabiylik holati

Matn o`quvchilarga zanjir usulida o`qitiladi.

**Dam olish daqiqasi o`tkaziladi.**

**Test savollari.**

**1.**Levon nima uchun sichqonlardan qutulishni istadi?

**A.**U doim sichqonlarni yomon ko`rar edi.

**B.**Ular juda ham ko`p edi.

**C.**Ular juda baland ovozda kulishar edi.

**D.**Ular hamma pishloqlarni yeb qo`yishgandi.

**2.**Levon qopqonlarni qayerga o`rnatdi?

**A.**Savatga

**B.**Sichqonlar ini yaqiniga

**C.**Stullarning ostiga

**D.**Shiftga

**3.**Birinchi tun qopqonga nechta sichqon ilindi?

**A.**Barcha sichqonlar qopqonga ilindi.

**B.**Oltita sichqon


**C.**Yigirmata sichqon

**D.**Umuman sichqon ilinmadi

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**"Klaster" metodi.**

Levon qanday odam edi?



Darslikda berilgan savollar asosida savol-javob o`tkaziladi.

### **Mashq daftar bilan ishlash.1-topshiriq.**

**Ixtiro nima?** Fan-texnika sohasida kashf etilgan, ijobiy samara beradigan yangilik.

**Kashfiyat-chi?** Tekshirish, ilmiy tadqiqot natijasida, ba'zida tasodifan topilgan, yaratilgan ilmiy yangilik.

**2-topshiriq.** Testlarni yeching.

**1.**Levon nima uchun sichqonlardan qutulishni istadi?

**A.**U doim sichqonlarni yomon ko`rar edi.

**B.**Ular juda ham ko`p edi.

**C.**Ular juda baland ovozda kulishar edi.

**D.**Ular hamma pishloqlarni yeb qo'yishgandi.

**2.**Levon qopqonlarni qayerga o`rnatdi?

**A.**Savatga

**B.**Sichqonlar ini yaqiniga

**C.**Stullarning ostiga

**D.**Shiftga

**3.**Birinchi tun qopqonga nechta sichqon ilindi?

**A.**Barcha sichqonlar qopqonga ilindi.

**B.**Oltita sichqon

**C.**Yigirmata sichqon

**D.**Umuman sichqon ilinmadi

**4.**Nima uchun sichqonlar birinchi tunda o`z inlaridan chiqib,bir-birlarini turtib,qo`llari bilan shiftni ko`rsatib kula boshlashdi?

**A.**Ular shiftda stulni ko`rib qolishdi.

**B.**Shiftdagи qopqonlar ularni hayratga solgandi.

**C.**Ular qopqondagi pishloqni yeyishni xohlashdi.

**D.**Ular ko`rgan narsalaridan qo`rqib ketishgandi.

**5.**Levon stulni shiftga yopishtirganidan so`ng yana nima qildi?

**A.**Jilmaydi va hech nima demadi.

**B.**Bir nechta qopqon sotib oldi.

**C.**Barcha narsalarni shiftga yelimlab yopishtirdi.

**D.**Sichqonlarga ozgina pishloq berdi.

**6.**Levon xonaga kirganida, nima uchun pol sichqonlar bilan qoplangan edi?

**A.**Sichqonlar juda uzoq vaqt davomida boshlarida turishgandi.

**B.**Levon sichqonlarga ko`p pishloq bergen edi.

**C.**Sichqonlar shiftdan qulab tushishgandi.

**D.**Levon polga yelim surtib qo`ygan edi.

**3-topshiriq.** Savollarga javob yozing.

1. Levon qopqonlarda sichqonlarning yo`qligini ko`rib, nima uchun jilmayib qo`ydi? Chunki unda sichqonlarni yo`qotish uchun boshqa g`oyasi bor edi.

2. Levon sichqonlarni poldan yig`ib olgach, ularni qayerga soldi? Levon sichqonlarni yig`ib, savatchaga soldi.

**4-topshiriq.** O`qigan hikoyangiz asosida berilgan topshiriqlarni bajaring. O`quvchilar mustaqil bajaradilar.

1. Matndan ikkinchi kechada sichqonlarni chulg`ab olgan vahimani ifodalovchi gaplardan birini toping va ko`chirib yozing.

2. Siz Levon haqida uning qilgan ishlaridan bilib oldingiz. U qanday inson ekanini ikkita misol bilan izohlang.

**5-topshiriq.** Hikoyada Levon va sichqonlar bir-birlariga duch kelgan vaqtida qanday yo`l tutganlarini eslang. Qaysi holatlar tufayli ushbu hikoya haqiqatdan uzoqlashganini tushuntirib bering.

**V.Darsni yakunlash va o`quvchilarini baholash.** Savol-javob o`tkaziladi. Darsda faol qatnashgan o`quvchilar baholab, rag`batlantiriladi.

**VI.Uyga vazifa berish.** Hikoya mazmunini so`zlab berishga tayyorlaning.